

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI O'RTASIDA SINXRON TARJIMANING GRAMMATIK MUOMMOLARI

Saidova Marjona Abdimutal qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Agglyunativ tillar, analitik tillar, grammatik kategoriyalar, grammatik tafovutlar, artikl.

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillari orasida sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan muommolarga oydinlik kiritish uchun xizmat qiladi. Inhlizchadan o'zbek tiliga va aksincha, o'zbek tilidan ingliz tiliga sinxron tarjima qilishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud bo'lib, maqolada ana shu ikki tilning grammatik tuzilishi, ularning farqli va o'xshash jihatlari muhokama qilinadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Odatda, tarjima jarayonida tarjimomni ikki marta to'xtashga majbur qiladigan har qanday qiyinchiliklar tarjima muommolari sifatida qaraladi. Birinchi to'xtash bu yuzaga keladigan muommo, ikkinchisi esa shu muommoni qanday hal qilish va uning yechimi bilan bog'liqdir. Lingvistik muommolar qatoriga grammatik, leksik, stilistik va fonetik muommolarni kiritishimiz mumkin.[1]

Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. O'zbek tili agglyunativ tillar doirasiga kirib, so'zning o'zak yoki asosini o'zgartirmasdan qo'shimchalar qo'shish orqali ma'lum so'z yoki shakllar yasaladi va har bir qo'shimcha muayyan ma'no va vazifa bajaradi. Ingliz tili esa analitik tillar doirasiga mansub bo'lib, bunda grammatik ma'nolar shakl yasovchi qo'shimchalar emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi yoki intonatsiya vositasida ifodalanadi. O'zbek tiliga xos bo'lgan grammatik xususiyatlardan biri bu gap tartibining erkinligidir. O'zbek tilida gap tartibi **aniqlovchi+ega+ to'ldiruvchi+ hol+ kesim** tarzida bo'lib, kesim asosan gap oxirida keladi. Lekin ba'zida uslub taqazosiga ko'ra ularning o'rni almasha ham ma'no saqlanaveradi. Ingliz tilida esa so'z tartibi qat'iydir, ya'ni ega birinchi, kesim esa doim undan so'ng keladi va ikkinchi darajali gap bo'laklari kesimdan so'ng qo'llaniladi. Bunday hollarda gap bo'laklarining o'rni almashtirilsa, ma'no o'zgarishiga olib keladi. Masalan: **Jane looked after the kids.** (*Jane bu bolaga g'amxo'rlik qilgan*). Jumladagi gap bo'laklarining joyini almashtirsak, bunga teskari ma'noga duch kelamiz: **The kids looked after Jane** (*Bu bola Janega g'amxo'rlik qilgan*). O'zbek tilida esa gap bo'laklarining o'rnidan qat'iy nazar ma'no o'z holicha saqlanadi: **Bolalarga Jane g'amxo'rlik qildi. Jane bolalarga g'amxo'rlik qildi.**

Shunga qaramay, ingliz va o'zbek tillari o'rtasida ma'lum muvofiqlik ham bo'lib, ular asosan uch turga bo'linadi:

- To'liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyalar bor bo'lganda kuzatiladi: zamon kategoriyasi, son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi. Masalan, *boys—bolalar*.

- Qisman morfologik muvofiqlik tillardagi grammatik kategoriyalar bir- biriga mos kelmaganda kuzatildi. Misol uchun ingliz tilida ikkita kelishik, o'zbek tilida esa oltita kelishik mavjud.
- Morfologik nomuvofiqlik tilda grammatik kategoriyalarni mos kelmaslik holatida kuzatiladi. O'zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi mavjud va ular turli xil affikslar yordamida ifodalanadi. Lekin bunday affikslar ingliz tilida mavjud emas. Ular bunda olmoshlardan foydalanishadi: *bolam— my boy, bolang— your boy, bolasi— his boy*. [2]

Bundan shuni bilishimiz mumkinki, tarjima jarayonida har ikki tilning muvofiqlik darajasidan kelib chiqqan holda so'zlarning grammatik bog'lanishi va so'z kategoriyalari mosligiga ahamiyat qaratish lozim. Ingliz tilidan o'zbek tiliga sixron tarjima jarayonida kamdan kam holatlarda to'liq muvofiqlik kuzatiladi. Shu sabab vujudga keladigan birinchi muammo bu aniq tarjima qilishning imkoni yo'qligidir. Bunda tarjimon kontekstdan kelib chiqib, so'zlarning muqobil ekvivalentini topa olishi kerak.

A.V. Federov CHT va TT o'rtasidagi grammatik tafovutlarning uchta asosiy turini ajratadi:

1. CHT va TT da rasmiy- grammatik yozishmalar bo'lmagan elementlar mavjud.
2. CHT va TT da rasmiy muvofiqliklar bo'lmagan, ammo muqarrar ravishda TT ning har qanday matnida ishlatiladigan elementlar mavjud
3. TT da CHT elementlariga rasmiy ravishda mos keladigan, ammo bajaradigan funksiyalarda farq qiluvchi elementlar mavjud. [3]

Ingliz va o'zbek tillari o'rtasida yana bir grammatik muammo shuki, ikki tilning zamon kategoriyalari bir- biriga mos kelmasligidir. Ya'ni o'zbek tilidagi uchta zamonning ingliz tilida o'n olti xil shakli bilan ifodalanishi tarjimada biroz qiyinchilikka olib keladi.

Aslida, fe'ning zamon va kesimlik shakllari jiddiy muammo tug'dirmaydi. Chunki zamon shakllari odatda ravish, olmoshlar va boshqa belgilar bilan "qo'llab- quvvatlanadi". Bu og'zaki nutqda yuqori darajadagi vaqt ortiqchaligini ta'minlaydi. Shunday qilib, hattoki grammatik jihatdan to'g'ri bo'lmagan *Yesterday I *come home and I *see that my wife *is not in (England, Birminghamda muallif tomonidan yozib olingan) yoki Financial activities of tobacco control *has not been discussed internatianally (muallif tomonidan xalqaro konferensiyada yozib olingan)* kabi jumlar berilgan kontekstda oson talqin qilinadi. (Maksimov S.E.) Lekin ma'ruzachi ingliz zamonlarining Perfect guruhini ishlatganda tarjimonlar doimo hushyor bo'lishi kerak. Past Perfect zamoni ko'pincha leksik qo'shimchalarni (kengaytirishni) talab qiladi. Masalan: *His wife had been beautiful*. Shuningdek, zamonaviy ingliz tilida kelasi zamoni ifodalashning bir qancha usuli mavjud. Ba'zi mualliflar hatto "Kelajak zamonga ega emas, chunki unda kelajak zamon fleksiyalari yo'q" deb da'vo qilishadi. Kelasi zamoni ifodalashning quyidagi keng tarqalgan usullari mavjud: 1. Hozirgi noaniq zamon (*We leave tonight for Texas— bugun Texasga ketamiz*); 2. Hozirgi davom zamoni (*You are publishing a book in just a few weeks' time called " The Independent Diplomat" and you call it a " personal account of the descent from illusion to disillusionment"*— siz bir necha hafta ichida " *The Independent Diplomat*" deb nomlangan kitobni nashr etyapsiz va siz uni " *xayoldan umidsizlikka o'tish haqidagi shaxsiy ma'lumot*" deb nomlaysiz); 3. Shall, will shakllari orqali belgilab qo'yilgan ish- harakatni anglatuvchi modal fe'l sifatida yoki majburiyat ma'nosi bilan rasmiy nutqda qo'llaniladi. 4. Infinitive bilan ifodalanish shakli (*Our flight is to leave at 11⁰⁰ a. m.— bizning samalyot 11⁰⁰ da jo' naydi*); 5. Maxsus shakllar, misol uchun to be going to yoki to be about to (*We are going to leave your father some money— biz otangizga ozroq pul qoldirib ketmoqchimiz*). [4]

Shu bilan bir qatorda ingliz tilida mavjud bo'lgan aniq va noaniq artikllarning tarjima tilida to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida artikllarning ikki turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Aniq artikl (the) — sanaladigan va sanalmaydigan, avval eslatib o'tilgan otlar oldidan qo'llaniladi (the car, the sugar, the dogs).
2. Noaniq artikl (a, an) — faqatgina sanaladigan birlikdagi otlar bilan avval aytib o'tilmagan hollarda qo'llaniladi (a car, an orange).[5]

O'zbek tilida esa aniqlik va noaniqlikni ifodalash uchun leksik va sintaktik vositalardan foydalaniladi. Bunday vositalarga ko'proq olmoshlarni kiritishimiz mumkin. Ingliz tilidagi aniq artikl o'zbek tilida ko'rsatish olmoshkari, noaniq artikl esa gumon olmoshlari bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning o'ziga xos qiyinchiliklari bo'lib, doim ham asliyat tilidan tarjima tiliga so'zma- so'z tarjima qilishning imkoni yo'qdir. Bunday holatda tarjimondan talab etiladigan narsa ikki tilga xos bo'lgan grammatik, leksik va sintaktik jihatlari va ularning tilda qo'llanilish sohasini chuqur o'rganishdir. Nutq madaniyatining muhim omillaridan biri ham nutqning har jihatdan puxta va to'g'ri bo'lishi va bu hol birinchi navbatda tilning grammatik me'yorlarini puxta o'zlashtirib olib, nutq qurilishining grammatik shakllarini to'g'ri tuza bilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ako Subhi Ghaza'ee, Wrya Izzadin Ali. Journal of University of Garmian
<https://doi.org/10.24271/garmian.196354>
2. I. G'afurov, O.Mo'minov, N. Qambarov. Tarjima nazaryasi. " Tafakkur bo'stoni", T.:—2012,136-bet.
3. https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_767_20210505.pdf
4. Maksimov S.E. Grammatical Difficulties of Consecutive and Simultaneous Interpreting
<https://doi.org/10.24919/2663-6042.11.2019.175423>
5. <https://media.neliti.com/media/publications/268308-problems-of-translating-definite-and-ind-fccfbc3a.pdf>
6. Аззамов, Ю. Р. (2021). ГАСТРОНОМИК КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(5).
7. Ugli, A. Y. R. (2021). Gastronomic discourse: linguoculturological and translation aspects. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 62-66.
8. Аслонов, Ш. Ш. (2020). КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ФИЛОЛОГИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ. *Гуманитарный трактат*, (84), 17-19.
9. Аслонова, Ш. И. (2020). ПРОБЛЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЁЖИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. *Интернаука*, (21-1), 59-60.
10. Madaminovich, T. I. (2017). THE LINGUISTIC PECULIARITIES AND APPROPRIATE METHODS OF TRANSLATION. *Восточно-европейский научный журнал*, (12-4 (28)), 52-53.
11. ШВАЧКО, Е. В. (2017). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 31 окт.–3 нояб. 2017 г./Челяб. гос. ин-т культуры; сост. ЕВ Швачко.—Челябинск: ЧГИК, 2017.—394 с. ISBN 978-5-94839-629-3.
12. Madaminovich, T. I., Khusanovich, K. B., Akhatovna, K. O., & Kholmamatovna, B. L. (2019). Features of the system of formation of compensatory competence among agricultural students as a means of filling in professional terminology. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 8(11), 2202-2206.

13. Тухтасинов, И. М. (2014). НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА СЛОЖНЫХ СЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ВНЕШНОСТЬ И ХАРАКТЕР ЧЕЛОВЕКА (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ). *Paradigmata poznání*, (3), 74-78.
14. Тухтасинов, И. М. (2011). Сопоставительный анализ описания внешности человека в английском и узбекском языках (стилистический ракурс). *Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки*, (630), 105-110.
15. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATİK FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA'NOSIGA KO'RA TURLARI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
16. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (2 (71)), 64-66.
17. Тухтасинов, И. М. (2010). Продуктивные модели сложных слов, обозначающих внешние признаки человека в современном английском языке. *Молодой ученый*, (5-2), 47-50.